



## TA'LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARINING ZARURATI

*Asqaralieva M.A.*

*Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktranti*

**Tayanch so'zlar:** xalqaro baholash dasturlari, ta'lim sifati, globallasuv jarayoni, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, moliyaviy savodxonlik, kompyuter savodxonligi, tabiiy-ilmiy savodxonlik.

**Ключевые слова:** программы международной оценки, качество образования, процесс глобализации, грамотность чтения, математическая грамотность, финансовая грамотность, компьютерная грамотность, естественнонаучная грамотность.

**Key words:** international assessment programs, quality of education, globalization process, Reading Literacy, mathematical literacy, financial literacy, computer literacy, natural-scientific literacy.

Bugungi kunga kelib globallasuv jarayoni jamiyatning barcha sohalarini qamrab olmoqda va o'z navbatida, fan va texnikaning rivojlanishiga, iqtisodiyotning yuqori darajada o'sishiga hamda ta'lim sohasidagi integrasiya jarayoning yanada chuqurlashishiga olib kelmoqda. Ta'limning sifati, uning kompetentligi, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida raqobatga chidamli malakali mutaxassislarni tayyorlash globallasuv davrining muhim xususiyatlariga aylandi. Shuningdek, globallasuv jarayoni kelajak egalari sifatida yosh avlodni tayyorlashda dunyo mamlakatlarning maqsadlarini umumiy lashishiga olib keldi. Dunyo davlatlari ta'limning jamiyat taraqqiyoti va inson rivojlanishidagi muhim o'rnini e'tiborga olib, ta'lim sifatiga e'tibor qaratdi. Ayni davrda ta'lim sohasida sifat tushunchasi global fenomen sifatida ko'rilmogda.

Yosh avlodning intellektual faolligini shakllantirish nafaqat muayyan bir mamlakat balki xalqaro hamjamiyat uchun ham muhim masalaga aylandi. Shuning uchun ta'lim sifati, ta'lim sifatini baholash kabi masalalar bilan ko'pgina xalqaro tashkilotlar davlatlarida ta'lim sohasida baholashning quyidagi kabi xalqaro baholash dars turlari amaliyotga tatbiq etilgan:

PISA – o‘quvchilarni ta’limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi;  
 PIRLS – matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot;  
 TIMSS – maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring;

ICILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo‘yicha xalqaro tadqiqot kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo‘lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta’lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo‘llanilmoqda.

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini (o‘qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi dastur.

Bu dastur 3 yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo‘llanilgan. PISA bo‘yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o‘shishini ta’minlaydi. PISAda o‘quvchilarning bilim sifati monitoringi 5 ta yo‘nalish bo‘yicha aniqlanadi. Tadqiqot yo‘nalishlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- O‘qish savodxonligi;
- Matematik savodxonlik;
- Moliyaviy savodxonlik;
- Kompyuter savodxonligi;
- Tabiiy-ilmiy savodxonlik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida davlat va jamiyat ahamiyatiga molik dolzarb masalalar qatorida ta’lim sifatini oshirishga, 2021-yildagi xalqaro baholash jarayonlariga munosib tayyorgarlik ko‘rish masalasiga alohida e’tibor qarlatildi.

Qayd etish lozimki, Prezidentimiz farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” tasdiqlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro baholash dasturining reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 16-sentabrdagi “2017-2018 o‘quv yilida ta’lim sifati monitoring tizimini yanada takomillashtirish va tashkil etish to‘g‘risida”gi 299-sonli buyrug‘idan:

3-band 2-xatboshida: Monitoring jarayonini tashkil etish, nazorat materiallari va turlarini ishlab chiqishda ilg‘or xalqaro tajribalar (PISA, TIMSS va h.k.) ni o‘rgangan holda milliy monitoring tizimini takomillashtirish va uning natijalari asosida o‘quv-metodik jarayonni yanada rivojlantirish choralari ko‘rish;



4-bandida: Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio(video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20% gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi belgilab qo'yilgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Bu esa quyidagi imkoniyatlarni yaratib beradi:

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish, ta'lim mazmunini, pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxassislar tomonidan darsliklarning yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi;

Tadqiqotlarda olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosalar chiqarish imkonini beradi;

Xalqaro tadqiqotlar ta'lim sohasidagi milliy tadqiqotlarni sifatli o'tkazishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

Xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi;

O'zbekistonda turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarni jalb qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarning monitoring tadqiqotlarini o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lim sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi;

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarini xalqaro tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqish imkonini beradi;

Zamonaviy globallashtirish va o'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida "Har tomonlama rivojlanish konsepsiyasi" yosh avlodning bilim darajasiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni XXI asr bilim va ko'nikmalarini egallashlari uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida ta'lim sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Bunday islohotlar o'quvchilarning ta'limdagi yutuqlarni baholash va nazorat qilish imkonini beradi. Bundan ko'rinadiki, mamlakatimizda ta'lim sifatini baholashning yangicha tizimi shakllanmoqda. Hozirda zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari rivojlantirilmoqda. Jumladan, 2018-yil 12-noyabrda Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida Xalqaro talabalar bilimini baholash dasturi (programme for international student assessment (PISA) da ishtirok etish to'g'risida kelishuv imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida bunday xalqaro baholash tendensiyalariga amal qilish yosh avlodni intellektual faolligini oshirish, ularning ta'limdagi kompetentligini va kreativligini rivojlanishiga hissa qo'shadi. Yuqorida keltirilgan xalqaro baholash dasturlari tahsil oluvchilarning shu kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda bu baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga integratsiya etsih zarur hisoblanadi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida dunyoda ta'lim sifatini baholash bo'yicha yetakchilik qilib kelayotgan xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA va PIRLS dasturlarida ishtirok etishga kirishildi.

Xalqaro baholash dasturlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, bevosita ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liqdir. Unda ishtirok etish, nafaqat O'zbekiston, balki, jahon hamjamiyatida o'quvchilarning o'quv dasturlarini yodda saqlab qolganligini baholashdan ularning kompetensiyalarini baholash, ya'ni maktabda egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va uni baholashga o'tishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi.

O'qituvchilar va o'quvchilarning PISA va PIRLS tadqiqotlari haqidagi tasavvurlarini boyitish, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik darajasini oshirish, o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shu orqali ta'lim sifatini oshirishga hissa qo'shish maqsadida Ta'lim inspeksiyasi, uning huzuridagi Milliy markaz hamda xalq ta'limi tizimidagi mutaxassislar bilan hamkorlikda 2019-yil davomida qator ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro tadqiqotlar bo'yicha xorijiy davlatlarda Inspeksiya va Xalq ta'limi tizimining 30 nafar xodimlari malaka oshirdi. Respublikamizning 14 ta hududida, jumladan, xorijiy ekspertlar ishtirokida Toshkent shahri, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida seminarlar tashkil etilib, umumta'lim muassasalarining 2800 nafarga yaqin jamoalari qamrab olindi, 260 nafar trener tayyorlandi.

Xalqaro tadqiqotlar bo'yicha 191 ta maktablarda PISA savollari negizida dastlabki tajriba-sinovlar o'tkazilib, 4873 nafar o'quvchilar qamrab olindi.



markazi, IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi.

O'quvchilarning erishgan yutuqlarini baholash barcha o'quvchilardan emas, balki ushbu qatlam vakillari sifatida tanlab olingan o'quvchilardan obyektiv testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, maktab direktorlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, hattoki ota-onalardan so'rovnomalar o'tkazilib, ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarga doir qimmatli ma'lumotlar to'planadi.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda PIRLS ta'rifi ko'ra, o'qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma'no hosil qila olish qobiliyati hamdir.

PIRLS boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o'qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya'ni "badiiy tajriba orttirish", "axborotni olish va undan foydalanish"ga qaratiladi. O'z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular:

diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish;

to'g'ridan-to'g'ri xulosalar chiqarish;

kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish;

g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish.

Tadqiqot doirasida asosiy e'tibor tushunishni namoyon qilishdan o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qanday qilib yangi loyihalar va vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatlarini namoyon qilishga qaratilmoqda. O'quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo'lib, ma'no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o'qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo'llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o'quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo'lishi mumkin. Bular an'anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko'rinishdagi yozma shakllarni ham o'z ichiga oladi.

#### Adabiyotlar:

1. Гаваза, Т.А. «Трудные задачи» по теории вероятностей в средней школе. Методический аспект / Г. А. Гаваза // Естественные и физико-математические науки. – 2015. -№6. – С. 61-68.

2. Гусев, В.А., Смирнова, И.М. Магистерская диссертация по методике преподавания математики: Методические рекомендации. – М.: Прометей, 1996. – 107 с.



3. A. Ismoilov, D.Norboyeva, K. Kucharova, Z.Qosimova, N.Aminova. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini baholash. (o'quv qo'llanma) –T.: Sharq NMAK, 2019. -94 b.

4. Зубелевич, Г.И. Сборник задач московских математических олимпиад. / Г.И. Зубелевич.- 2-е изд., перераб. – М.: Просвещение, 1971. – 304 с.

5. Qurbonova M.F. Boshlang'ich ta'limda xalqaro dasturlar, Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi, 2023-yil, 8-son, 809-812 b.

6. Qurbonova M.F. Mustaqil ishlarni tashkil etish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan metodlar // Mug'allim hэм yzliksiz bilimlendirio'. – Nukus, 2021. – B. 112-116. (13.00.00 №20)

7. Ковалева, Г.С. Результаты международного сравнительного исследования PISA в России /Г. С. Ковалева, Э. А. Красновский, Л. П. Краснокутская, К. А. Краснянская // PISA – Международная программа оценки знаний и умений учащихся. Москва: Центр ОКО ИОСО РАО, 2001. -20 с.

#### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlarini zarurati, dunyo ta'limiga ta'siri, ta'lim sifatini oshirish usullari haqida fikr yuritilgan.

#### **РЕЗЮМЕ**

В этой статье рассматривается необходимость международных оценочных программ, их влияние на мировое образование, способы повышения качества образования.

#### **SUMMARY**

This article reflects on the need for international assessment programs, their impact on World Education, ways to improve the quality of Education.